

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MEHNAT QONUNCHILIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Yusupov Bahodir Bog‘ibekovich

Qo‘shko‘pir tumani Adliya bo‘limi YXKM boshlig‘i

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga oid huquqiy asoslar, mehnat munosabatlarining rivojlanish bosqichlari, amaliy muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan. Xususan, mehnat huquqining asosiy prinsiplariga zamonaviy yondashuv, xalqaro standartlarga moslik va mehnat sohasida olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *mehnat qonunchiligi, mehnat huquqi, ishchi, ish beruvchi, shartnoma, ijtimoiy himoya, huquqiy islohot.*

Har bir davlatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti, eng avvalo, mehnat bozorining sog‘lom ishlashiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida mehnat qonunchiligini shakllantirish va takomillashtirish borasida salmoqli natijalarga erishdi. Biroq, hayotda yuz berayotgan real voqealar, ayniqsa, ishchi-xodimlar va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlar, mehnat qonunchiligida hali hal etilishi lozim bo‘lgan qator amaliy muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Avvalo, mehnat bozorida noformal bandlikning yuqoriligi — ya‘ni fuqarolarning mehnat shartnomasisiz ishlashi, ularning huquqiy himoyasizligiga olib kelmoqda. Ish beruvchilar ko‘pincha ishchilarni rasmiylashtirmasdan ishlatadilar, bu esa ularga nafaqa, kasallik puli, mehnat ta‘tili kabi huquqlarni bermaydi. Bu muammo ayniqsa xususiy sektorda keng tarqalgan.

Yana bir muammo — ish haqi bo‘yicha qonunbuzarliklar. Ayrim tashkilotlarda ish haqlari kechiktiriladi, ayrim hollarda esa mehnatga haq to‘lash yashirin ravishda amalga oshiriladi, bu esa soliq tizimidan chetda qoladi. Natijada, na ishchi o‘z huquqini to‘liq amalga oshira oladi, na davlat byudjeti to‘g‘ri shakllanadi.

Shuningdek, mehnat nizolari bo‘yicha samarali mexanizmning yetishmasligi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Ishchilar o‘z huquqlarini buzilgan deb bilsalar-da, sud yoki mehnat inspeksiyasiga murojaat qilishdan qo‘rqadilar yoki bu jarayonni murakkab deb hisoblaydilar. Bu holat ayniqsa yirik korxonalardan farqli o‘laroq, kichik biznesda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilikni isloh qilish muhim vazifalardan biri

hisoblanadi. Mehnat huquqi jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashda, fuqarolarning iqtisodiy faolligini oshirishda va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Xalqaro huquqiy hujjatlar kabi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Shuni alohida e'torof etish lozimki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida fuqarolarning mehnat qilish huquqini kafolatlangan bo'lib unga ko'ra "Har kim mehnat qilish, kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlariga ega bo'lish va ishsizlikdan himoyalanih huquqiga ega".

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalqaro mehnat tashkilotining 14 dan ortiq konvensiyasini ratifikatsiya qilgan, xususan:

- 29-sonli "Majburiy mehnat to'g'risida" konvensiya;
- 105-sonli "Majburiy mehnatni bekor qilish to'g'risida" konvensiya;
- 87-sonli "Kasaba uyushmalari erkinligi" konvensiyasi.

Mehnati qonunchiligining huquqiy asoslari jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta'minlash yani xodim va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlarda nizolarni oldini oladi, ijtimoiy himoya – fuqarolarning minimal huquqiy kafolatlarini ta'minlaydi (ish vaqti, dam olish, nafaqalar) va ishchi kuchining harakatini tartibga solish – bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat resurslarining raqobatbardoshligini oshirish kabi ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

Shu bilan birga yangi Mehnat kodeksi qabul qilinishi bilan raqamli mehnat daftarchalari, masofadan turib ishlash va moslashuvchan ish vaqti, ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi elektron shartnomalar hamda mehnat nizolarini sudgacha hal qilish mexanizmlari joriy etilganligi mehnat munosabatlarining tizimli yangi bosqichga olib chiqilganidan dalolatdir.

Xalqaro tajriba, ayniqsa Yevropa Ittifoqi va Skandinaviya davlatlari mehnat qonunchiligi tizimi, O'zbekistonga o'ziga xos tarzda tatbiq qilinmoqda. O'zbekistonning XMT bilan hamkorligi kuchaygan bo'lib, bolalar mehnati va majburiy mehnatga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi tizimi bosqichma-bosqich yangilanmoqda. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi – bu yo'nalishdagi muhim qadam bo'lib, unda ishchi va ish beruvchining manfaatlari balansli tarzda himoyalangan. Kelgusida raqamli texnologiyalar asosida mehnat sohasini boshqarish, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashish va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish ustuvor yo'nalishlardan bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (yangi tahrir). – Toshkent: Adolat, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni.
4. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi. “Mehnat munosabatlarida raqamli yondashuv: islohotlar va natijalar” – Toshkent, 2024.
<https://mehnat.uz>
5. International Labour Organization (ILO). *Decent Work Country Programme: Uzbekistan 2021–2025*. – Geneva: ILO, 2021.
<https://www.ilo.org>
6. Sobirov, B. R. “O‘zbekiston mehnat qonunchiligini modernizatsiya qilish yo‘llari.” // *Huquq va Demokratiya*, 2023, №4, – B. 34–39.
7. Toshpo‘latov, A. A. *Mehnat huquqi asoslari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 240 b.
8. Xamidova, M. “Xususiy sektorda mehnat shartnomalari va huquqiy xavfsizlik.” // *O‘zbekiston huquqshunoslari jurnalining maxsus soni*, 2023. – B. 41–47.